



RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA YOSHLAR MA'NAVIYATI

Bakirov Otabek Bo'ranovich

Jizzax viloyati PMM kafedra mudiri

Annotation: *This article discusses the effective use of digital technologies in improving the morale of young students. Digital technologies have become an integral part of our lives, and computers, the Internet, mobile phones, artificial intelligence and many other technologies have entered our daily activities, work, study and even social relationships. In such cases, one of our main tasks is to help the younger generation keep up with the times in all aspects.*

Key Words: *Spirituality, digital technology, Internet, mobile phones, artificial intelligence, IT park, company, spiritual resources, content.*

Аннотация: *В этой статье рассматривается эффективное использование цифровых технологий в улучшении морального духа молодых студентов. Цифровые технологии стали неотъемлемой частью нашей жизни, а компьютеры, Интернет, мобильные телефоны, искусственный интеллект и многие другие технологии вошли в нашу повседневную деятельность, работу, учебу и даже социальные отношения. В таких случаях одной из наших главных задач является помощь молодому поколению идти в ногу со временем во всех аспектах.*

Ключевые слова: *Духовность, цифровые технологии, Интернет, мобильные телефоны, искусственный интеллект, IT-парк, компания, духовные ресурсы, контент.*

KIRISH

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Kompyuterlar, internet, mobil telefonlar, sun'iy intellekt va boshqa ko'plab texnologiyalar har kungi faoliyatimizga, ishimizga, o'qishimizga va hatto ijtimoiy aloqalarimizga kirib kelgan. Bu texnologiyalar, albatta, yoshlarni ta'lim olishda va o'zlarini rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq, raqamli texnologiyalar faqat bilim olish uchun emas, balki ma'naviy qadriyatlar va ahloqiy me'yorlarni rivojlantirishda ham muhim o'rin tutadi. O'quvchi yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda raqamli texnologiyalarni qanday samarali foydalanish mumkinligini o'rganish dolzarb masalalardan biridir.

Ayni vaqtda mamlakatimizda axborot texnologiyalari sohasida salmoqli ishlar olib borilmoqda. Oxirgi yillarda ushbu yo'nalishlarda katta o'zgarishlar bo'ldi. Axborot texnologiyalari subyektlari uchun yaratilgan sharoitlar va imtiyozlar natijasida bunday korxonalar va ish o'rinlari soni, xizmatlar eksporti ortib bormoqda. Xususan, 2017-yilda yurtimizda IT kompaniyalar soni 147 ta bo'lgan bo'lsa, hozirda 1 ming 600 taga yetgan.



Ish o'rinlari ham qisqa vaqtda 10 baravar ko'payib, 24 mingtadan oshgan. 2017 yilda 600 ming AQSH dollari bo'lgan eksport hajmi joriy yil yakuni bilan 300 million dollardan oshishi kutilmoqda. My.gov.uz yagona portali orqali bugungi kunda 8 milliondan ortiq aholi va tadbirkorlar 570 turdagi onlayn xizmatdan foydalanmoqda. Ijro intizomi yagona tizimi - ijro.gov.uz orqali davlat idoralari va ularning quyi bo'g'inlari xodimlari tomonidan 28 millionta hujjat elektron ayriboshlangan. Prezidentimiz bu tizim rahbarlarning ongi va mas'uliyatini o'zgartirganini ta'kidlab, hujjatlar integratsiyasi va sifatini yaxshilash, ijro intizomi nazoratini kuchaytirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

2022-yilda BMTning Elektron hukumat reytingida mamlakatimiz 18 pog'ona yuqorilab, 69-o'rinni egalladi. 2030-yilga borib, ushbu reytingda birinchi o'ttiztalikka kirish bo'yicha yillik chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Shuningdek, "O'zbekiston-2030" strategiyasida IT xizmatlar va dasturiy mahsulotlar eksporti hajmini 5 milliard dollarga yetkazish maqsadi belgilangan.

Buning uchun hududlarda IT infratuzilmani va venchur bozorini rivojlantirish, "local to global" tamoyili orqali mahalliy korxonalarni eksportga olib chiqish, yurtimizda xalqaro kompaniyalarning ofislarini ochish kabi ko'plab choralar ko'zda tutilgan. Shu maqsadda ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish, IT-park hududida Angliya huquqini joriy etish, rezidentlar uchun soliq imtiyozlarini 2040-yilgacha uzaytirish, umuman, bu sohaga 100 yillik qulaylik yaratish bo'yicha takliflar muhokama qilindi.

Raqamli transformatsiya zamonida yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirish masalasi keng miqyosdagi ijtimoiy, madaniy va ta'limiy muammolar bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Yuksak ma'naviyatli yoshlar aholi sonining eng faol va ishchan qismi bo'lib, ular oila, jamiyat va davlatning barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning globallasuvi, internetning rivojlanishi, ijtimoiy medianing ta'siri kabi omillar yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda o'z o'rniga ega.

Maqolada raqamli transformatsiya sharoitida o'quvchi yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi tahlil qilinadi. Ushbu maqsadga erishish uchun ta'limdagi raqamli innovatsiyalar, yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi mexanizmlar va ularni takomillashtirish yo'nalishlari ko'rib chiqiladi.

Raqamli transformatsiya va ta'lim sohasidagi o'zgarishlar: Raqamli transformatsiya o'quvchilarning ta'lim jarayonida foydalanadigan texnologiyalari, bilimlarga bo'lgan yondoshuv, ma'lumotlar bilan ishlash usullariga sezilarli o'zgarishlarni kiritdi. Bu, o'z navbatida, yoshlarning axloqiy va ma'naviy qiyofasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, internet va ijtimoiy media yoshlarning hayotga bo'lgan qarashlarini, ijtimoiy majburiyatlarini va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga ta'sir qilmoqda.



Yoshlar ma'naviyatining asosiy komponentlari: Ma'naviy-axloqiy taraqqiyot yoshlar orasida jamiyatdagi yoshlarga xos qadriyatlarni shakllantirishni nazarda tutadi. Yoshlarning ma'naviy o'zgarishlarini eng avvalo, ta'lim, oila, ijtimoiy muhit va raqamli kontent shakllantirishi mumkin. Yoshlar ma'naviyatining asosiy komponentlariga: mustaqillik, e'tiqod, axloqiy norma va qadriyatlar, ijtimoiy mas'uliyat, muhabbat va qiyofalar kiradi.

Ijtimoiy media va internet yoshlar ma'naviyatiga turli ta'sirlar ko'rsatadi. Bir tomondan, bu kanallar yoshlarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirsa, boshqa tomondan, ularni noxush axloqiy va ma'naviy ta'sirlarga yo'naltirishi mumkin. Shunday ekan, internetdagi yoshlarga turli axloqiy qadriyatlarni o'rgatishga yo'naltirilgan kontentlarning ahamiyati muhimdir.

Raqamli texnologiyalar va axloqiy ta'lim, ayniqsa, onlayn ta'lim platformalari, yoshlarga axloqiy bilimlarni o'rgatishda muhim vosita bo'lib xizmat qilish mumkin.

Masalan, pedagoglar raqamli resurslardan foydalangan holda, yoshlarni axloqiy va ma'naviy tarbiya berishni amalga oshirishlari mumkin. Ushbu resurslar interfaol o'yinlar, videolar, virtual musobaqalar va internet kurrikulumlari orqali yoshlar o'rtasida axloqiy normalarni shakllantirishga yordam beradi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning raqamli yo'nalishlari: Raqamli texnologiyalar axloqiy ta'lim berishni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Virtual muhitda axloqiy qadriyatlar va mo'jiza, inson huquqlari, ijtimoiy adolat, ko'ngil ochishga yo'naltirilgan kontentlar yoshlar uchun tushunarli va ta'sirli bo'ladi.

Mazkur yo'nalishda internet-kurslar, mobil ilova va interfaol o'yinlar axloqiy tarbiyaning samarali vositalari sifatida ishlatilishi mumkin. Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarga ma'naviy ta'lim berishning samarali usullari mavjud. Masalan, onlayn kurslar, videodarsliklar, interaktiv dasturlar orqali o'quvchilarga milliy va umumbashariy ma'naviy qadriyatlar, ahloqiy me'yorlar, tarixiy va madaniy merosni o'rganish imkoniyati yaratilmoqda. Internetdagi resurslar, bloglar, forumlar o'quvchilarga nafaqat o'qituvchilardan, balki turli sohalardagi mutaxassislardan ham bilim olish imkonini beradi. Shu bilan birga, yoshlarning axloqiy savodxonligini oshirishga xizmat qiladigan onlayn materiallar ham mavjud bo'lib, bu ularning ruhiy va ma'naviy holatini mustahkamlashga yordam beradi.

Yoshlar o'rtasidagi ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishda raqamli ovozlari, yoshlarning o'zaro muloqoti va ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyati ham muhim omil bo'lib, ularning axloqiy va ma'naviy rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Oila va ta'lim muassasalarining yo'nalishlari raqamli kontentda aks etishi, yoshlarning mazmunli va ijobiy xulosalarga ega bo'lishini ham ta'minlaydi. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar o'rtasida o'zaro aloqalarni ta'minlash, fikr almashish va madaniy qadriyatlarni tarqatishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bunday platformalarda ijobiy va salbiy ma'naviy kontentlar ham mavjud, ammo yoshlarni ma'naviy jihatdan yuksaltirish uchun ijtimoiy tarmoqlarda to'g'ri axborot va madaniy materiallar tarqatilishi kerak. Yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda axloqiy jihatdan to'g'ri, ta'sirchan va mushtarak qadriyatlar asosida



fikrlar almashishlari mumkin. Buning uchun ta'lim muassasalarida ijtimoiy tarmoqlardan ma'naviyatni oshirishga qaratilgan foydali platformalar yaratish zarur.

Bugungi vaqtda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish mexanizmlarini takomillashtirish ta'limda raqamli transformatsiyaga asoslangan mexanizmlar orqali yoshlarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini ta'minlashga aratilgan bo'ladi. Buning uchun, maktablarda raqamli ta'lim vositalarini joriy etish, pedagoglarning raqamli media savodxonligini rivojlantirish bo'yicha malakasini oshirish va yoshlarga axloqiy qadriyatlarni o'rgatishga yo'naltirilgan maxsus kurslar ishlab chiqish zarur. Onlayn platforma va interaktiv vositalar orqali yoshlar o'rtasida axloqiy qobiliyatlarni va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish imkonini berish mumkin.

Maqsadli interfaol kontentlar va ko'rsatmalar masalan, axloqiy treninglar, virtual musobaqalar va videoroliklar yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga yordam beradi. Bu kontentlarning asosiy maqsadi yoshlarning axloqiy tushunchasini o'stirish va ijtimoiy adabiyotlar, inson huquqlari, e'tiqod, millatlararo munosabatlar kabi mavzularda ta'lim berish samarali hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar, ayniqsa onlayn kutubxonalar va ma'naviy resurslar, o'quvchilarga o'z ma'naviy qiziqishlariga mos kitoblar va maqolalarni o'rganish imkonini beradi. Masalan, o'zbek tilida yoki boshqa tillarda mavjud bo'lgan onlayn kutubxonalar, ilmiy maqolalar va boshqa resurslar orqali o'quvchilar qadriyatlar, axloqiy qoidalar, din, falsafa va tarix haqida keng ma'lumotlarga ega bo'lishlari mumkin. Shu bilan birga, onlayn kutubxonalarda ma'naviy va madaniy asarlarning to'liq to'plamlari taqdim etilib, o'quvchilarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Raqamli texnologiyalarni noto'g'ri ishlatish o'quvchilarning ma'naviyatiga zarar yetkazishi mumkin. Internetda tarqalgan nojo'ya, zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi, millatlararo va diniy adovatni kuchaytiruvchi kontentlar yoshlarni salbiy ta'sir ostida qoldirishi mumkin. Shuning uchun, yoshlarning onlayn faoliyatini nazorat qilish va to'g'ri axborot bilan ta'minlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Yoshlarning virtual dunyoga ko'p vaqt ajratishlari, ularning haqiqiy hayotdagi munosabatlarini, shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatlarini unutilishiga olib kelishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, ma'naviy va ahloqiy jihatdan rivojlanishlariga to'sqinlik qiladi. O'quvchilarga raqamli texnologiyalardan foydalanganda vaqtni oqilona taqsimlash, haqiqiy dunyoda ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash muhimdir.

Xulosa

Raqamli transformatsiya sharoitida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish mexanizmi o'zgarishlar va yangiliklarni talab qiladi. Internet, ijtimoiy media va raqamli texnologiyalarning ta'siri omillari yoshlarning axloqiy va ma'naviy rivojlanishini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Shu bilan birga, ta'lim muassasalari va oila yoshlarning ma'naviy tarbiyasini mustahkamlash uchun raqamli vositalardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishlari lozim. Ma'naviy-axloqiy tarbiyada raqamli transformatsiyaning samarali mexanizmini joriy qilish orqali



yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga erishish mumkin. Bu, o'z navbatida, kelajak avlodning faol, mas'uliyatli va axloqiy jihatdan barkamol shaxslar bo'lib shakllanishiga yordam beradi.

Yoshlarning virtual dunyoga ko'p vaqt ajratishlari, ularning haqiqiy hayotdagi munosabatlarini, shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatlarini unutilishiga olib kelishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, ma'naviy va ahloqiy jihatdan rivojlanishlariga to'sqinlik qiladi. O'quvchilarga raqamli texnologiyalardan foydalanganda vaqtni oqilona taqsimlash, haqiqiy dunyoda ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash muhimdir. Bugungi davrda o'quvchilar ilmiy bilimlarni kengaytirish, axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni o'rganish, o'zini rivojlantirish va ijtimoiy aloqalarni yaxshilash imkoniyatiga ega. Biroq, raqamli texnologiyalarni noto'g'ri ishlatish salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, shuning uchun o'quvchilarga to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatib, axloqiy jihatdan to'g'ri ishlatish zarur.

Ta'lim muassasalarida va oilalarda yoshlarning raqamli texnologiyalardan samarali va ma'naviy jihatdan foydali foydalanishlarini ta'minlashga qaratilgan ishlanmalar amalga oshirilishi lozim.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta'lim va tarbiya bo'ladi: Daryo yangiliklari
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026- yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni: Lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni: lex.uz
4. www.lex.uz
5. www.uzedu.uz